

KICHIK MAKTAB O'QUVCHILARINING MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANISH JARAYONI

Muladjanova Gulchexraxon Abidjanovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

Annotation

Ushbu maqolada kichik maktab o'quvchilarda muloqotchanlik ko'nikmalarini shakllantirish hamda unga yordam beruvchi usullar va tendensiyalar yoritilgan. Boshlang'ich maktab o'quvchilarining muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy ta'limga dolzarb muammosidir. Zamonaviy ta'limga konsepsiysi ta'limga insonparvarlashtirish vazifasini tahlil qiladi. *Maqola bugungi kunning dolzarb mavzularidan bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: o'quvchi, muloqot, muloqotchanlik, zamonaviy ta'lim, ma'naviy tarbiya, axloqiy tarbiya.

Аннотация

В этой статье рассказывается о формировании коммуникативных навыков у младших школьников, а также о методах и тенденциях, которые им помогают. Развитие коммуникативных навыков младших школьников - актуальная проблема современного образования. Современная концепция образования анализирует задачу гуманизации образования. Статья является одной из актуальных тем сегодняшнего дня и направлена на формирование коммуникативных навыков младших школьников.

Ключевые слова: ученик, общение, коммуникабельность, современное воспитание, духовное воспитание, нравственное воспитание.

Annotation

This article covers the formation of communication skills in small school students as well as the methods and trends that contribute to it. The development of communication skills of Primary School students is an urgent problem of modern education. The concept of modern education analyzes the task of humanizing education. The article is one of the current topics of today and is aimed at the formation of communication skills of Primary School students.

Keywords: student, communication, communication, modern education, spiritual education, moral education.

Bugungi kunda o‘zida ta’lim-tarbiya elementlarini mujassamlashtirgan boshlang‘ich ta’lim jarayonini tashkil etish dolzarb mavzulardan biridir. Kichik maktab yoshidagi bolalarni o‘qitish va ularga milliy hamda umuminsoniy tarbiya elementlarini singdirish yo‘li amaliy jihatdan tatbiq qilinishi lozim. Bu o‘rinda milliy axloq tarbiyasi, ma’naviy, ruhiy hamda milliy nafosat va jismoniy tarbiya boshlang‘ich ta’lim bosqichida ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim. Bunda o‘quv materiali shaklida berilgan ta’limiy matnlarda o‘quvchilarda turli shakllarda axloqiy – ma’naviy tarbiya va milliy nafosat me’yorlarini, diniy hamda umuminsoniy qadriyatlarini singdirish nazarda tutiladi. Boshlang‘ich ta’lim mazmuni istiqbolda konkretlashtirishni nazarda tutganda ta’lim vositalari alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quv jarayonining “bilim” komponenti bunda muhim rol o‘ynaydi. Bilim komponenti esa “rivojlanish” komponenti asosida shakllanadi. “Rivojlanish” komponenti. Rivojlanish” butun o‘quv jarayonining asosiy tarkibiy qismidir. Bu boshlang‘ich mакtabda Tarbiya darslari uchun nimani anglatadi? Eng avvalo, Tarbiya fanida bunga o‘zgarishlar kiritilishni nazarda tutadi, ya’ni fanning mohiyatini, uslub va metodlarini takomillashtirish

demakdir. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bunday rivojlanish bosqichi o‘z ichiga mustaqil shug‘ullanishni ham qamrab oladi.

Boshlangich sinf o‘quv materiallarining yaqqolligi, yorqinligi, jozibadorligi, o‘quvchida beixtiyor his-tuyg‘ular uyg‘otadi, irodaviy zo‘rikishsiz, osongina fan asoslarini egallash imkonini beradi. 1 -2 sinf o‘quvchilari diqqatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning yetarlicha barqaror emaslidigidir. Shuning uchun ham ular diqqatlarini muayyan narsalarga qarata olmaydilar va diqqat obyektda uzoq tura olmaydi.

Ta’lim jarayoni kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mehnat qilish, misol-masalalar yechish, mashqlar bajarish, takrorlash irodaviy zo‘r berish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi.

O‘quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o‘quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun xam imkoniyat yaratadi. Shuni aloxida ta’kidlash lozimki, yetakchi bo‘lgan o‘quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar-o‘yin, muloqot va mehnat faoliyatit ham o‘quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta’sir ko‘satiadi.

Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo‘lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin.

Shuningdek shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biron bir mas’ul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o‘zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin. Ana shu his bolada mustaqil bo‘lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi. 7-11 yoshli davrda bolalar o‘zlarining individual xususiyatlarini anglay boshlaydilar.

Bolani o‘z-o‘zini anglashi ham jadal rivojlana boradi va mustaxkamlana boshlaydi. Bu davrda bolalar o‘zlarining ismlariga yanada ko‘proq ahamiyat bera boshlaydilar va ularning ismlari tengdoshlari va atrofdagilar tomonidan ijobiy qabul qilinishiga xarakat qiladilar.

O‘quvchi xulq-atvorining motivlashtirishi ham o‘zgaradi. Bunda o‘rtoqlar va sinf jamoasining fikrlari asosiy motivlar bo‘lib qoladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar psixik rivojlanishga ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi va ayniqsa o‘qituvchi bilan bo‘ladigan munosabati orqali erishishi mumkin. 3-4 sinflarga borib bola uchun uning o‘rtoqlari bilan munosabatining ham ahamiyati ortadi. Bu munosabatlardan kattalar ta’lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin. Bu yoshdagi bolalar soatlab yolg‘iz xolda sevimli mashgulotlari bilan shug‘ullanishlari mumkin va shu asosda ularda mehnatsevarlik va mustakillik fazilatlari shakllanadi.

Insoniy muloqot to‘rt tomondan iborat bo‘lgan o‘ziga xos piramidaga o‘xshaydi: biz ma’lumot almashamiz, boshqa odamlar bilan muloqot qilamiz, ular bilan tanishamiz va shu bilan birga muloqot natijasida paydo bo‘ladigan o‘z holatlarimizni boshdan kechiramiz. Muloqot odamlarni birlashtirish, shuningdek, ularni rivojlantirish yo‘li sifatida qaralishi mumkin. Boshqa odamlar bilan muloqot qilish orqali inson umuminsoniy tajribani, tarixan shakllangan ijtimoiy normalarni, qadriyatlarni, bilim va faoliyat usullarini o‘rganadi, shuningdek, shaxs sifatida shakllanadi. Makarenko. “Bolalarga yaxshi aytilgan ishbilarmonlik kuchli so‘z, - dedi u, - juda katta ahamiyatga ega va bizda tashkiliy shakllarda hali ko‘p xatolar bordir, chunki biz ko‘pincha yigitlar bilan qanday gaplashishni bilmaymiz. Lekin siz irodangni, madaniyatningni, shaxsiyatningni so‘zingda his eta oladigan darajada ayta olishi kerak”.

Axloqiy tarbiyada muloqotning roli ayniqsa katta. Bolalar bilan maqsadli muloqot ularni o‘z-o‘zini tarbiyalashga, xatti-harakatlarini yaxshilashga intilishlariga sabab bo‘ladi. Muloqot - bola rivojlanishining asosiy sharti, shaxsni shakllantirishning eng muhim omili, inson faoliyatining asosiy turlaridan biri, boshqa odamlar orqali o‘zini bilish va baholashga qaratilgan. Bola hayotining birinchi kunlaridanoq muloqot

uning aqliy rivojlanishining eng muhim omillaridan biridir. Bola maktab yoshiga yetganda muloqotga bo‘lgan ehtiyoji yanada ortib boradi. Maktabdagi o‘quv fanlari bolaning lug‘at boyligini ortishiga notanish so‘zlar va ularning ma’nolarini o‘rganish, o‘z tengdoshlari bilan muloqotda bo‘lish imkoniyatini yaratdi.

Foydalanilga adabiyotlar

1. G.A. Muladjanova AXBOROT-PSIXOLOGIK URUSH DAVRIDA MEDIAISTE'MOLI MADANIYATIINI SHAKLLANTIRISH. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(4) 672-374
2. Abidjanovna, M. G. (2022). RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINING O'ZIGA XOS JIHATLARI. PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION, 1(8).